



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA JINOYAT VA JAZO MAVZUSI

Dilnoza Sultonova

Namangan davlat universiteti, doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek xalq ertaklarida jinoyat va jazo motivlarining badiiy, axloqiy va tarbiyaviy talqini tahlil qilinadi. Ertak janri xalq og'zaki ijodining muhim epik turi sifatida ezigulik va yovuzlik, halollik va hiyla, adolat va zulm, rostgo'ylik va yolg'onchilik kabi qarama-qarshi tushunchalarni obrazli ifodalashi bilan ajralib turadi. Maqolada jinoyat xalq ertaklarida huquqiy kategoriya sifatida emas, balki axloqiy me'yorlarning buzilishi, yomon niyat, zulm, aldov, nohaqlik va ijtimoiy adolatsizlik ko'rinishida namoyon bo'lishi asoslanadi. Shuningdek, jazo motivi ertaklarda yovuz kuchlarning mag'lubiyati, adolatning tiklanishi, ijobiy qahramonlarning g'alabasi va yosh avlodga axloqiy saboq berish vositasi sifatida talqin etiladi. "Uch og'a-ini botirlar", "Zumrad va Qimmat", "Zolim podsho", "Husniyabonu" kabi ertaklar misolida jinoyat va jazo masalasining syujet qurilishi, konflikt yechimi va tarbiyaviy funksiyasi yoritiladi. Maqolada ertaklarning bolalar nutqiy faoliyati, tafakkuri va axloqiy dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyati ham ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek xalq ertaklari, jinoyat, jazo, axloqiy tarbiya, adolat, yovuzlik, ertak janri, xalq og'zaki ijodi, Husniyabonu, Zumrad va Qimmat.

ТЕМА ПРЕСТУПЛЕНИЯ И НАКАЗАНИЯ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ

Дильноза Султонова

Наманганский государственный университет, докторант

Аннотация

В данной статье анализируется художественная, нравственная и воспитательная интерпретация мотивов преступления и наказания в узбекских народных сказках. Сказка как важный эпический жанр устного народного творчества отличается образным выражением таких противоположных понятий, как добро и зло, честность и обман, справедливость и угнетение, правдивость и ложь. В статье обосновывается, что преступление в народных сказках проявляется не как юридическая категория, а как нарушение нравственных норм, злой умысел, насилие, обман, несправедливость и социальное неравенство. Мотив наказания в сказках рассматривается как поражение злых сил, восстановление справедливости, победа положительных героев и средство нравственного воспитания подрастающего поколения. На примере таких сказок, как "Uch og'a-ini botirlar", "Zumrad va Qimmat", "Zolim podsho", "Husniyabonu", раскрывается роль темы преступления и наказания в построении сюжета, разрешении конфликта и выполнении воспитательной функции. Также подчеркивается значение сказок в развитии речи, мышления и нравственного мировоззрения детей.

Ключевые слова: узбекские народные сказки, преступление, наказание, нравственное воспитание, справедливость, зло, жанр сказки, устное народное творчество, Husniyabonu, Zumrad va Qimmat.

THE THEME OF CRIME AND PUNISHMENT IN UZBEK FOLK TALES

Dilnoza Sultonova

Namangan State University, Doctoral Student

Abstract

This article analyzes the artistic, moral, and educational interpretation of crime and punishment motifs in Uzbek folk tales. As an important epic genre of oral folklore, fairy tales are distinguished by their figurative representation of contrasting concepts such as good and evil, honesty and deceit, justice and oppression, truthfulness and falsehood. The article argues that crime in folk tales is not presented primarily as a legal category, but rather as a violation of moral norms, evil intention, oppression, deception, injustice, and social inequality. The motif of punishment is interpreted as the defeat of evil forces, the restoration of justice, the victory of positive heroes, and a means of moral education for the younger generation. Through examples such as "Uch og'a-ini botirlar", "Zumrad va Qimmat", "Zolim podsho", and "Husniyabonu", the article reveals the role of crime and punishment in plot construction, conflict resolution, and educational function. The article also highlights the importance of fairy tales in developing children's speech activity,

thinking, and moral worldview.

Keywords: Uzbek folk tales, crime, punishment, moral education, justice, evil, fairy tale genre, oral folklore, Husniyabonu, Zumrad va Qimmat.

O'zbek xalq og'zaki ijodi milliy ma'naviyat, axloqiy qadriyatlar, xalqona tafakkur va tarbiyaviy qarashlarning muhim manbalaridan biridir. Uning eng qadimiy va ommabop janrlaridan biri bo'lgan ertaklar xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvurlari, odob-axloq me'yorlari hamda adolatga bo'lgan intilishlarini badiiy shaklda ifodalaydi. Ertak janri xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va tarbiyaviy qarashlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim badiiy vosita sifatida baholanadi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbek xalq ertaklarida jinoyat va jazo masalasi alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki ertaklarda jinoyat zamonaviy huquqshunoslikdagi tor ma'nodagi qonunbuzarlik sifatida emas, balki axloqiy me'yorlarning buzilishi, yomonlik, zulm, yolg'onchilik, hasad, o'g'rilik, aldov, nohaqlik va ijtimoiy adolatsizlik shaklida namoyon bo'ladi. Jazo esa rasmiy sud-huquq tizimi orqali emas, balki xalqona adolat, qahramonlik, donishmandlik, hayotiy saboq va badiiy konflikt yechimi orqali amalga oshiriladi.

Ertaklarda jinoyat va jazo mavzusining mavjudligi ularning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytiradi. Bola ertak voqealarini tinglash yoki o'qish jarayonida yaxshilik va yomonlikni farqlashni, adolatni qadrlashni, halollik, rostgo'ylik, mehr-oqibat, jasurlik va donolik kabi fazilatlarining inson hayotidagi ahamiyatini anglaydi. Xalq og'zaki ijodi ertaklari bolalarda hayot haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirib, ezgulikka muhabbat va yovuzlikka nafrat hissini tarbiyalaydi [2].

Ertak xalq og'zaki ijodining epik janrlaridan biri bo'lib, unda hayotiy voqelik, xalqona tasavvur, fantastik obrazlar, maishiy muammolar, axloqiy qarashlar va badiiy to'qima uyg'unlashadi. Ertaklar ko'pincha sodda syujet, aniq konflikt, qarama-qarshi obrazlar va tarbiyaviy xulosa bilan ajralib turadi. Unda voqealar real hayotga o'xshash bo'lishi mumkin, lekin ko'pincha sehrli, mo'jizaviy yoki hayoliy unsurlar bilan boyitiladi [3].

Ertaklarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ular bolalarga murakkab ijtimoiy va axloqiy tushunchalarni oddiy, obrazli va ta'sirchan shaklda yetkazadi. Masalan, adolat nima, yomonlik nima uchun jazolanishi kerak, halollikning natijasi qanday bo'ladi, yolg'on va hiylaning oqibati nimalarga olib keladi kabi savollar ertaklarda bevosita nazariy izoh orqali emas, balki qahramonlar taqdiri orqali tushuntiriladi.

O'zbek xalq ertaklari o'zining xalqona tili, obrazlarining ravshanligi, ma'naviy mazmuni va tarbiyaviy yo'nalishi bilan ajralib turadi. Ular xalqning tarixiy tajribasi, hayotiy qarashlari va axloqiy qadriyatlarini aks ettiradi. O'zbek xalq ertaklarining tabiati va ularning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati bolalar shaxsini shakllantirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish va axloqiy qadriyatlarni singdirishda muhim o'rin tutadi [4].

Ertaklarda voqealar ko'pincha yaxshilik va yomonlik qarama-qarshiligi asosida quriladi. Ijobiy qahramonlar halol, mehnatsevar, jasur, aqlli, sabrli va odobli bo'lsa, salbiy obrazlar zolim, hiylakor, ochko'z, yolg'onchi yoki hasadgo'y sifatida tasvirlanadi. Bu qarama-qarshilik jinoyat va jazo motivlarining shakllanishiga asos bo'ladi. Chunki yomon qahramonning nohaq harakati syujetdagi konfliktni yuzaga keltiradi, ijobiy qahramonning harakati esa adolatning tiklanishiga xizmat qiladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

O'zbek xalq ertaklarida jinoyat tushunchasi keng axloqiy ma'noda talqin qilinadi. Bunda jinoyat faqat qotillik, o'g'rilik yoki zo'ravonlik kabi aniq xatti-harakatlar bilan chegaralanmaydi. Aksincha, ota-onaga hurmatsizlik, birovga zulm qilish, yolg'on gapirish, hiyla ishlatish, hasad qilish, nohaqlik, omonatga xiyonat, kuchsizlarga ozor berish kabi holatlar ham yomonlik sifatida baholanadi. Ertaklarda bunday xatti-harakatlar "jinoyat" deb bevosita nomlanmasligi mumkin, ammo ularning mohiyati axloqiy tartibni buzish bilan bog'liq. Shu sababli xalq ertaklari jinoyatni huquqiy emas, ma'naviy-axloqiy hodisa sifatida ko'rsatadi. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagida o'gay ona va Qimmatning Zumradga nisbatan yomon munosabati, hasadi va nohaqligi maishiy-axloqiy jinoyat sifatida talqin qilinadi. Zumradning odobli, mehnatsevar va sabrli bo'lishi esa ijobiy fazilat sifatida yuksaltiriladi [2].

"Uch og'a-ini botirlar" ertagida ota nasihatlari, yomon bilan yurmaslik, halol bo'lish, jasurlik va odamiylik kabi fazilatlar asosiy tarbiyaviy mezon sifatida ko'rsatiladi. Ushbu ertakda jinoyat va yomonlikka qarshi kurash qahramonlarning jasorati, donoligi va axloqiy pokligi orqali amalga oshadi. Bunday ertaklar bolalarda yomonlikka qarshi ichki qarshilik hissini shakllantiradi.

"Zolim podsho" kabi ertaklarda esa jinoyat ijtimoiy adolatsizlik va hokimiyatni suiiste'mol

qilish shaklida ko‘rinadi. Zolim hukmdor yoki boy obrazlari orqali xalq og‘zaki ijodi jamiyatdagi nohaqlikni qoralaydi. Bunday ertaklarda oddiy xalq vakillari, dono qahramonlar yoki jasur insonlar zulmga qarshi turadi. Natijada ertak ijtimoiy adolat g‘oyasini ilgari suradi.

Ertaklarda jazo motivi syujetning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Salbiy qahramonning jazolanishi ertak voqealarining mantiqiy yakuni bo‘lib, u tarbiyaviy xulosa vazifasini bajaradi. Jazo ertaklarda ko‘pincha yovuzlikning barbod bo‘lishi, yolg‘onchining fosh etilishi, zolimning mag‘lubiyati yoki halol qahramonning g‘alabasi orqali ifodalanadi.

Jazo motivining asosiy vazifasi bolaga axloqiy qonuniyatni tushuntirishdir: yomonlik jazosiz qolmaydi, ezgulik esa oxir-oqibat g‘alaba qiladi. Bu g‘oya xalq ertaklarining eng asosiy tarbiyaviy xususiyatlaridan biridir. Ertaklar bolalar uchun didaktik vosita bo‘lib, ular orqali ezgulik va yovuzlik, mehnatsevarlik va dangasalik, halollik va hiyla kabi tushunchalar sodda va tushunarli shaklda yetkaziladi [4]. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagida Zumrad o‘zining odobliligi, sabri va halolligi tufayli mukofotga erishadi, Qimmat esa yomon fe‘li va dangasaligi tufayli jazolanadi. Bu yerda jazo nafaqat tashqi voqea, balki axloqiy natija sifatida talqin qilinadi. Ertak bolaga insonning fe‘l-atvori uning taqdiriga ta‘sir etishini ko‘rsatadi. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagida ham qahramonlarning halolligi va jasorati ularga muvaffaqiyat keltiradi. Ular yomonlikka qarshi kurashadi, sinovlardan o‘tadi va oxir-oqibat adolat tiklanadi. Bu ertakda jazo ijtimoiy tartibni tiklash, axloqiy me‘yorni mustahkamlash va qahramonlikni ulug‘lash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

“Husniyabonu” ertagi o‘zbek xalq ertaklarida jinoyat va jazo motivlarining axloqiy-tarbiyaviy talqiniga yaxshi misol bo‘la oladi. Ushbu ertakda yomon niyat, aldov, zulm, nohaqlik, fitna va shaxsiy manfaatni ko‘zlab boshqalarga zarar yetkazish kabi motivlar voqealar rivojida muhim o‘rin tutadi. Bunday xatti-harakatlar ertak syujetida jinoyatning axloqiy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Husniyabonu obrazi esa halollik, donolik, jasorat va adolatparvarlik timsoli sifatida tasvirlanadi. U yomon niyatli kishilarning hiyla va aldovlariga qarshi turadi, adolatni tiklashga intiladi. Bu jihatdan Husniyabonu faqat ertak qahramoni emas, balki xalqona axloqiy idealni ifodalovchi obrazdir.

Ertakdagi jinoyat motivlari bir necha omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin: moddiy manfaatga intilish, kuch va nufuzni qo‘lga kiritish istagi, shaxsiy hasad, yolg‘onchilik va aldov orqali boshqalardan ustun kelishga urinish. Bunday motivlar xalq ertaklarida yomonlikning manbai sifatida talqin qilinadi. Husniyabonu esa bunday yomonliklarga qarshi turuvchi ijobiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ertakda jinoyat va jazo masalasi sehrli va hayotiy unsurlar uyg‘unligida beriladi. Sehrli-fantastik elementlar voqealarga badiiy joziba baxsh etsa, jinoyat va jazo motivlari ertakning axloqiy mazmunini kuchaytiradi. Shu bois “Husniyabonu” ertagi bolalarda halollik, adolat, jasorat va yomonlikka qarshi kurashish hissinii tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Ertaklarda jinoyat motivi ko‘pincha konfliktni yuzaga keltiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Agar salbiy qahramon yomonlik qilmasa, voqealar rivojlanmaydi, ijobiy qahramon sinovga duch kelmaydi va adolatni tiklash ehtiyoji paydo bo‘lmaydi. Shu sababli jinoyat yoki yomon xatti-harakat ertak syujetida harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi. Jazo esa konflikt yechimini ta‘minlaydi. Ertak yakunida salbiy qahramon jazolanadi, ijobiy qahramon mukofotlanadi, buzilgan axloqiy tartib tiklanadi. Bu jarayon bolaga sabab va oqibat munosabatini tushuntiradi. Ya‘ni har bir yomon xatti-harakatning oqibati bor, har bir ezgu amal esa ijobiy natija beradi.

Ertaklar bolalar tafakkurini rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi. Bola ertak syujetini kuzatar ekan, voqealar orasidagi bog‘liqlikni, qahramonlarning niyatini, ularning harakati va natijasi o‘rtasidagi munosabatni anglay boshlaydi. Bu esa sabab-oqibat tafakkurini shakllantiradi. O‘zbek xalq ertaklari bolalar dunyoqarashini kengaytirish, tafakkurini rivojlantirish, til va nutqini boyitish hamda ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim didaktik vosita sifatida baholanadi [4].

Ertaklar nafaqat axloqiy tarbiya, balki nutqiy faoliyatni rivojlantirish vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta‘lim jarayonida ertaklardan foydalanish bolalarning so‘z boyligini oshirish, bog‘lanishli nutqini shakllantirish, eshitib tushunish, qayta hikoya qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi [3]. Ertak matnlarida takroriy iboralar, xalqona ifodalar, obrazli tasvirlar va dialoglar ko‘p uchraydi. Bu jihatlar bolalarning til sezgirlikni oshiradi. Masalan, “bor ekan, yo‘q ekan”, “bir zamonda”, “kunlardan bir kun”, “oxiri yaxshilik g‘alaba qilibdi” kabi iboralar ertakning an‘anaviy ohangini yaratadi va bolalarning og‘zaki nutqida mustahkamlanadi.

Bolalar ertakni tinglash jarayonida qahramonlarning nutqini, harakatini, hissiyatini va munosabatini anglaydi. Keyinchalik ertakni qayta hikoya qilish orqali ular o‘z fikrini izchil bayon qilishga, voqealarni ketma-ketlikda ifodalashga, sabab va natijani tushuntirishga o‘rganadi. Shuning uchun ertaklar nutqiy faoliyatni rivojlantirishda tabiiy va samarali metodik vosita hisoblanadi [3].

Jinoyat va jazo motivlari mavjud ertaklar esa bolalarning nafaqat nutqiy, balki axloqiy-mantiqiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Bola qahramonlarning harakatiga baho beradi: kim to'g'ri ish qildi, kim xato qildi, nima uchun yomonlik jazolandi, nima uchun halollik g'alaba qildi. Bu savollar bolani fikrlashga, o'z munosabatini bildirishga va xulosa chiqarishga undaydi.

O'zbek xalq ertaklari yosh avlodni tarbiyalashda muhim ma'naviy manba hisoblanadi. Ular xalqning tarixiy tajribasi, hayotiy qarashlari va axloqiy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Ertaklar orqali bolalarga ezgulik, halollik, mehnatsevarlik, sabr, jasorat, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, adolat va vatanparvarlik kabi tushunchalar singdiriladi [4]. Ertaklarning ta'limiy ahamiyati ularning sodda, obrazli va esda qolarli shaklda berilishidir. Bola murakkab axloqiy tushunchalarni quruq nasihat orqali emas, balki voqealar, qahramonlar va badiiy obrazlar orqali oson qabul qiladi. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagi orqali bola mehnatsevarlik va odobning natijasini ko'radi; "Uch og'a-ini botirlar" orqali jasurlik va ota nasihatining ahamiyatini anglaydi; "Zolim podsho" orqali zulm va adolatsizlikning yomon oqibatini tushunadi.

Ertaklarda jinoyat va jazo motivlarining mavjudligi esa bu ta'limiy funksiyani yanada kuchaytiradi. Chunki bolalar yomonlikning jazolanishi va yaxshilikning g'alabasini badiiy shaklda ko'radi. Bu ularda axloqiy tanlov qilish qobiliyatini shakllantiradi.

O'zbek xalq ertaklarida jinoyat va jazo masalasi Fyodor Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" romanidagi falsafiy-psixologik talqindan farq qiladi. Dostoyevskiy asarida jinoyat sodir etgan insonning ichki azobi, vijdon qiynoqlari, ruhiy iztiroblari va aybni anglash jarayoni markaziy o'rin tutadi. O'zbek xalq ertaklarida esa jinoyat va jazo masalasi ko'proq xalqona axloqiy ta'limot sifatida beriladi. Ertaklarda salbiy qahramon ko'pincha chuqur psixologik tahlil qilinmaydi; u yomonlik timsoli sifatida tasvirlanadi. Uning jazolanishi orqali axloqiy tartib tiklanadi. Bu jihat ertak janrining tabiati bilan bog'liq. Chunki ertaklar murakkab psixologik roman emas, balki xalqning axloqiy tajribasini sodda va obrazli shaklda yetkazuvchi janrdir [1]. Shu bilan birga, ertaklarda ham inson xatti-harakatining oqibati, adolat g'oyasi va axloqiy mas'uliyat masalalari muhim o'rin tutadi. Faqat bu masalalar falsafiy monolog yoki ichki kechinma orqali emas, balki voqea, obraz, sinov, mukofot va jazo orqali ifodalanadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq ertaklarida jinoyat va jazo motivlari xalqning axloqiy qarashlari, adolat haqidagi tasavvurlari va tarbiyaviy maqsadlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ertaklarda jinoyat ko'pincha yomonlik, zulm, aldov, yolg'onchilik, nohaqlik va ijtimoiy adolatsizlik shaklida namoyon bo'ladi. Jazo esa yovuzlikning mag'lubiyati, adolatning tiklanishi va ijobiy qahramonning g'alabasi orqali ifodalanadi. "Uch og'a-ini botirlar", "Zumrad va Qimmat", "Zolim podsho", "Husniyabonu" kabi ertaklar jinoyat va jazo motivlarining axloqiy-tarbiyaviy vazifasini yaqqol ko'rsatadi. Bu ertaklar bolalarga halollik, jasorat, donolik, sabr, adolat va yomonlikka qarshi kurashish kabi fazilatlarni singdiradi. Ertaklarda jinoyat voqealari syujetni harakatga keltirsa, jazo motivi konflikt yechimini ta'minlaydi. Shuningdek, ertaklar bolalar nutqiy faoliyatini rivojlantirish, so'z boyligini oshirish, bog'lanishli nutqni shakllantirish va tafakkurni kengaytirishda muhim vosita hisoblanadi. O'zbek xalq ertaklarining tabiati va ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati ularni nafaqat badiiy meros, balki muhim pedagogik vosita sifatida ham qadrlash zarurligini ko'rsatadi. Demak, o'zbek xalq ertaklarida jinoyat va jazo motivi nafaqat voqelikni yoritish vositasi, balki axloqiy ma'rifat, milliy madaniyat va yosh avlod tarbiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Juraqulov R.D. Ertak janrining o'ziga xos xususiyatlari // Academic Research in Educational Sciences. – 2022. – T. 3. – № 5. – B. 786–794.
2. Xalq og'zaki ijodi ertaklari [Elektron resurs]. – URL: <https://tafakkur.net/ertaklar/xalq-ogzaki-ijodi>
3. Jumayev M., Yo'ldasheva D. Maktabgacha ta'limda nutq o'stirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 224 b.
4. Murodova F.G., Inomjonova M. O'zbek xalq ertaklarining tabiati va ta'limiy hamda tarbiyaviy ahamiyati // Modern Science and Research. – 2025. – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/65432>